

O'RTA TA'LIMDA KO'PYOQLIKLARNI O'QITISHNING BA'ZI USULLARI .

Haydarov To'liqin Turg'unbayevich

Katta o'qituvchi. Jizzax politexnika instituti.

Khaidarov Tulkin Turgunbaevich

Senior teacher. Jizzakh Polytechnic Institute.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta ta'limda Ko'yoqliklar va ularni o'qitish metodikasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ko'yoqliklar Geometrik masalalar, guruhlar bilan ishlash, Axborot texnologiyalariko'rgazmali materiallar,.

SOME METHODS OF TEACHING POLYHEDRA IN SECONDARY EDUCATION

Khaidarov Tulkin Turgunbaevich

Senior teacher. Jizzakh Polytechnic Institute.

Annotation: This article discusses polyhedra in secondary education and the methodology of teaching them.

Keywords: Polyhedra, geometric problems, group work, information technologies, visual materials.

Maktabda geometriyani o'qitish quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilarda to'g'ri fazoviy tasavvurlarni hosil qilish:
2. O'quvchilarda mantiqiy va mustaqil fikirlashni rivojlantirish:

Geometriya fanini o'quvchilarni mantiqiy va mustaqil fikirlashga o'rgatibgina qolmay, irodasini mustahkamlash va diqqatini to'play olishga ham o'rgatadi. Geometriya bilan shug'ullanish o'quvchida qat'iyatlilik, aniq maqsadga intilish, ijodkorlik, mustaqillik, ma'suliyatli, mehnatsevar, intizomli va tanqidiy fikirlash kabi axloqiy hislatlarini tarbiyalaydi, o'zining qarashi va e'tiqodlarini dalillar asosida himoya qila olish ko'nikmalarini va malakalarini rivojlantiradi, fazoviy tasavvurlarini boyitadi va ilmiy- nazariy tafakkurini shakllantiradi.

O'quvchilarning fazoviy tasavvuri stereometriya o'qitish bilangina rivojlanib qolmaydi, ularni kichik sinflarda planimetriya o'qitish jarayonida ham rivojlantirib borish lozim. Masalan: "Siniq chiziq" mavzusini o'tganda, uning chizmasini doskada chizib, ta'rifini beribgina qolmay, balki uni fazoda qanday holda bo'lishini ko'rsatish muhimdir.

Geometrik masalalarni yechishda masala shartiga mos chizmani chizish juda muhim hisoblanadi. Ba'zida to'g'ri chizilgan chizma- masalaning "yarim yechimi" bilan tenglashtiriladi. Stereometriyada masalaning chizmasini to'g'ri chizish nihoyatda muhim, o'ta ma'suliyatli va ba'zida esa murakkab ish hisoblanadi. Chunki stereometrik shakllar uch o'lchamli bo'lib, ularni tekislikda daftar sahifasida tasvirlash kerak bo'ladi. Noto'g'ri chizilgan chizma noto'g'ri yechimga yoki boshi berk ko'chaga boshlaydi.

Geometriyaning muhim jihatlaridan biri shundaki, o'rganigan ma'lumotlar o'qitishning keyingi bosqichi uchun tayanch manba hisoblanadi. Masalan, 8-sinfda geometriya kursi ko'pburchaklar mavzusidan boshlanadi. Ushbu mavzuni o'rganish orqali o'quvchi 7-sinfda o'rganilgan siniq chiziq va ko'pburchak haqidagi bilimlarini boyitadi va chuqurlashtiradi. Bunda siniq chiziqning ta'rifiga tayanib yassi ko'pburchak tushunchasi kiritiladi va bu mavzu o'z navbatida ko'pburchakning dioganallari haqidagi teorema bilan boyitiladi. Demak, o'quvchining ilgari siniq chiziq haqidagi bilimlari endilikda ko'pburchak tushunchasi va ko'pburchakning dioganallari haqidagi teorema orqali rivojlantiriladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasi prezidentining "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, "INTERNET" ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashki etish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori, kompyuterlarni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risidagi farmoni qabul qilingan. O'tgan yilning 9 iyulida

O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovsky nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risidagi qarori hamda 2020 yil 7-mayda "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tatqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

Geometriya darslarida tabaqalashgan guruhlar bilan ishlashda axborot texnologiyalarini qo'llash o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalarini quyidagi shakllarda foydalanish ko'zda tutiladi.

1. Muayyan predmetlarni o'qitishda kompyuter darslari.
2. Kompyuter darslari ko'rgazmali material sifatida.
3. O'quvchilarning guruhli va jamoaviy ishlarini takomillashtirish va hokozo.

Axborot texnologiyalari yordamida geometriya fani o'qitilsa, quyidagilarga erishiladi:

- Elektron o'quv qo'llanma imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchilarga mavzuni to'liq tushuntirish imkoniyati oshadi.
- Ularning bilim, ko'nikma va malakalari oshadi.
- Harakatli tasvirlar va animatsiyalar o'quvchilarning tasavvurlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.
- Amaliy ishlarga, ya'ni misol va masalalar yechishda, hayotiy misollar keltirishga, o'quvchilar o'rtasida savol-javob o'tkazishga ko'proq vaqt ajratiladi.
- O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi.
- O'quvchilarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish, mantiqiy fikirlash, geometrik o'lchash va yasashning amaliy usullarini o'rganish imkoniyatlarini beradi.

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalari kiritilishi, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, ularning darsdagi o'rni va vazifalarini keskin o'zgarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 1A.A'zamov, B.Xaydarov, "Geometriya" darslik, 7-sinf. Toshkent 207yil.
2. "Geometriya" darslik, 8-sinf.
3. B.Xaydarov, E.Sariqov, A.Qo'chqorov "Geometriya" darslik, 9-sinf. Toshkent 2019 yil.
4. B.Xaydarov, "geometriya bo'limi" darslik, 10-sinf I-qism, Toshkent 2017 yil.
5. B.Xaydarov, "geometriya bo'limi" darslik, 11-sinf I-qism, Toshkent 2018 yil.